

IMPORTANCE OF TUBERCULINIZATION IN VETERINARY PRACTICE**V.F.N. dotsent Qambarov A. A.,****Assistent Hakimov Sh,****Magistrant Mansurov O'.B.**

Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Annotatsiya: In the scientific article the issue of biological properties of allergic diagnosticum PPD-for cattle in experimental conditions developed by VITI laboratory Mamadullaeva G.Kh.

Keywords: Tuberculosis strain, microbacteria, M.V.T, bovis, humanis, aviom, PPD, KAM, tuberculinization

Annotatsiya: Ilmiy tadqiqotda VITI-katta ilmiy xodimi Mamadullaev G.X. laboratoriyasida ishlab chiqarilgan PPD-diagnostikumining biologik xususiyatlari eksperimental aniqlanganligi yoritilgan.

Annotatsiya: В научной статье освещены вопрос биологической свойства аллергического диагностикума ППД-для крупного рогатого скота в экспериментальных условиях разработанный ВИТИ лаборатории Мамадуллаева Г.Х.

Kalit so'zlar: Tuberkulyoz shtamm, mikrobakteriya, M.B.T, bovis, xumanis, avium, PPD, KAM, tuberkulinizatsiya.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar chiqarildi. Jumladan, Respublikamiz birinchi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi" PQ -308 sonli va 2008 yil 21 apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishni kuchaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-842-sonli qarorlari bundan tashqari keyingi yillarda 845-son 2017 yil 18 oktabrdagi "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa ba'zasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 16 martdagi "Qorakulchilik va chul ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining Buxoro filiali" tashkil etilishi, PQ-4243-son 2019 yil 18 martdagi "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" bir qancha chorvachilikni jadal rivojlantirishga va halqimizni kundan kunga o'sib borayotgan chorva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan. Ammo, yuqorida ta'kidlangan chorvachilik xo'jaliklarida chorvani jadal rivojlantirishga uy hayvonlari ayniqsa qo'ylar orasida uchraydigan infeksiyon anaerob kasalliklar sezilarli to'siq bo'lib kelmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda dunyoda 2 milliarddan oshiqroq insonlar tuberkulyoz kasalligi bilan kasallangan, har yili 8-10 mln kishi zararlanmoqda, shundan 4 mln kishi, yani haftada 77-ming kishi halok bo'lmoqda. Eng achinarlisi ularning 900 minggi ayollar va 300 ming yosh bolalar.

Tuberkulyoz o'ta havfli infeksiyon kasalliklar guruhiga mansub kasalliklar qo'zg'atuvchisining 3 ta potogen turlari aniqlangan:

1. Mycobacterium tuberculosis humanus-kasal qoramollardan ajratib olingan.
2. Mycobacterium tuberculosis bovinus-kasal qoramollardan ajratib olingan.
3. Mycobacterium tuberculosis avium-kasal parrandalardan ajratib olingan.

Odamlar M.t. bovinus turi bilan 26,5% kasallanishi aniqlangan. Rossiyada 2002-2004 yillarda 75254-93700 bosh qoramol ijobiy reaksiya bergan, shundan 18.000–21.600 namuna bakteriologik tekshirilgan 36,5% patogen va 36,4 atipik mikobakteriyalar ajratilgan.

Ajratilgan mikobakterialarning 96,5% M.t. bovis, 2,7% M.t. humanis, 0,8% M.t. avium tashkil etgan.

Mamlakatimizda har yili o'rtacha 1605 bosh qoramol tuberkulyozga tekshiriladi, bu mavjud qoramollarning 0,016% ni tashkil etadi.

Mana shu fakt masalaning dolzarbligini ko'rsata oladi.

Demak tuberkulin diagnostik preparati bilan yetarlicha ta'minlanish shart bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rinib turibdi.

M.t. humanis-dengiz cho'chqasida tarqalgan tuberkulyoz, quyonda lokal patologiya hosil qiladi.

M.t. bovis-dengiz cho'chqasida quyonda tarqalgan tuberkulyoz hosil qiladi.

M.t. avium-dengiz cho'chqasida quyonda sepsis o'choqli jarohat, tovuqda tarqalgan jarohat hosil qiladi.

Mikobakteriyalar GPQ, GPA, kartoshka, tuxum qo'shilgan suniy muxitlarda sekin o'sadi, M.t. humanis 20-30 kun M.t. bovis 20-60 kun M.t. avium 11-15 kunda o'sadi. O'sish bo'lmasa 3 oy termostatda saqlanadi. Yuqorida aytilgandek tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashish tadbirlarining asosini diagnostik preparat PPD ning biologik xususiyatlari tashkil etadi. Bu preparat 98%-kasal hayvonlarni aniqlab bera oladi. Preparat mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydi har yili Rossiyadan 10-12 mln doza sotib olishga to'g'ri keladi. Veterinariya qonunchiligi yo'riqnomasiga asosan har yili qoramolchilikda bir marta diagnostik tekshirish maxsulot beruvchi xo'jaliklarda esa 2 marta diagnostik tekshiruv o'tkazish rejalashtirilgan. Mana shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda tuberkulyoz kasalligini diagnostikumi PPD ishlab chiqishni yo'lga qo'yish juda kerak tuberkulinning sifati tarkibidagi maxsus substansiya bo'lishi bilan birga seshsblizatsiya chaqiradigan substrat bo'lmasligi lozim M.t. humanis, M.t. bovis, turlaridan tayyorlangan. PPD ning qaysi biri maxsusligi jixatidan ustunligi hozirgi kunda aniqlanmagan.

1971-yildan boshlab M.t.humanis va M.t.bovis turlaridan PPD ishlab chiqarilmoqda. 1982-yildan boshlab M.t bovis turidan tuberkulin ishlab chiqarish sanoat masshtabida yo'lga qo'yilgan. Tuberkulin tarkibi quyidagi kimyoviy moddalar bor: oqsillar 73-90%, lipidlar 11 %, polisaxaridlar 4-5%, nuklein kislotalar 1-2%. Rivojlangan mamlakatlarda tuberkulyoz diagnostikasi uchun mahalliy shtamlardan ishlangan PPD mavjud.

Tuberkulyoz kasalligi surunkali kechadi klinik belgilar deyarlik yaqqol namoyon bo'lmaydi shu sabab kasallikka allergik testlar o'tkazib diagnos qo'yiladi: IFA va PZR larida aniqlik darajasi juda yuqori. Veterinariya amaliyotida alergik tekshiruv ikki xil usulda: teri ostiga va ko'zga allergik tuberkulin yuborib 72 soat ichida natijasi aniqlanadi.

Tuberkulin otdan tashqari barcha hayvonlarga ikki oylikdan boshlab sut emizuvchilar uchun PPD tuberkulin 0,2 ml yuborildi tuberkulinni teri ostiga yuborishdan oldin terining qalinligi kutimetr yordamida o'lchab yozib olinadi. Ho'kizlarda dum osti burmasiga yuboriladi. Tuberkulin 2-3 ml yuboriladi. Qo'y, cho'chqa, it, maymun, mo'ynali hayvonlarda tuberkulin yuborilgandan keyin 48 soatdan so'ng parrandalarda 30-36 soatdan so'ng shish paydo bo'lsa ijobiy natija hisoblanadi. Allergik reaksiya juda sezgir va o'ta maxsus. U organizmning immunoreaktivligiga va tuberkulinga sezgirligiga bog'liq. Ajratma diagnoz uchun simuland reaksiya yoki atipik M.t. bilan KAM bilan qo'yiladi.

Ekspereperimental diagnostik tuberkulizatsiya Payariq tumanining "Ko'ktepa zamin agro" fermer xo'jaligida reja bo'yicha 1 yilda ikki marta o'tkaziladi.

№	Y.SH.H (bosh)	Ijobiy reaksiya	Ijobiy reaksiya
2018 yil	26	-	26
2019 yil	34	2	32
2020 yil	46	2	44

Ikki marta ijobiy reaksiya bergan hayvonlar 15 kun ichida majburiy go'shtga topshirib joylari malakali dizinfeksiya qilindi.

Veterinariya nizomi yo'riqnomasida quydagilar bajarilishi belgilangan. Agarda qoramollarda parenximatoz a'zolarida va limfa tugunlarda tuberkulyozga xos o'zgarishlar kuzatilsa yoki bakteriologik, gistologik va biosinov asosida diagnoz tasdiqlansa xo'jalikka cheklov qo'yiladi.

Allergik bakteriologik, gistologik, serologik test tekshiruvlari o'tkazilib kasal mollar ajratilib 15 kun ichida go'shtga topshiriladi

Ketma ket ikki marta ferma bo'yicha manfiy natija olguncha 30-45 kunda bir marta allergik tekshiruv o'tkaziladi, keyin 3 oy intervaldan so'ng yana ketma ket ikki marta ferma bo'yicha manfiy natija olguncha allergik tekshiriladi, agar manfiy natija olinsa sog'lom deb hisoblanadi. Kasal sigirlardan olingan buzoqlar bo'rdoqiga boqilib go'shtga topshiriladi.

Kasal sigirlardan olingan sut 10 min qaynatilib bo'rdoqiga boqilayotgan buzoqlarga beriladi yoki kuydirib yog' olinadi. Sog'lomlashtirilayotgan sigirlardan olinayotgan sut 90 gradusda 5 min, 85 gradusda 30 min pasterezatsiya qilinadi yoki qaynatiladi. Shartli sog'lom sigirlar buzoqlari aloxida saqlanadi. Sog'lom sigirlardan olingan sutlar bilan boqiladi. Ikki oyligida allergik tekshiriladi. Ijobiy reaksiya berganlari go'shtga topshiriladi qolganlari har 30-45 kunda ketma ket ikki marta firma bo'yich manfiy natija olguncha, kiyin har 3 oyda allergik tekshiriladi. Poda bo'yicha ketma ket ikki marta manfiy natija olinsa sog'lom deb hisoblanadi, ular faqat xo'jalik extiyojiga ishlatiladi, chetga chiqarish taqiqlanadi.

ETIS-2 (izoniyazit, streptomitsin, dimedrol, tetravit) preparati bilan sog'lomlashtirish Mamadullayev G. X. metodi.

Teri ostiga 18-20 ml yuboriladi 30 kun interval beriladi. Preparat nosog'lom va shartli sog'lom hayvonlarni kasalliklardan muxofaza etish uchun ishlatiladi. 10 kunlik hayvonlarni tuberkulyozdan himoya etishda ishlatiladi.

Qo'llashdan oldin fermadagi barcha hayvonlar tekshiriladi. Ijobiy natija bergan hayvonlar ajratiladi, qolgan shartli sog'lomlarga preparat yuboriladi 1-2-3-4-5-chi yuborish bo'yiga teri ostiga 3-6 chilari terisi ostiga yuboriladi. Epizootik vaziyatga qarab keyin har oyda bir marta yuboriladi. Ikki marta ketma-ket tekshirishda manfiy natija olinsa, 6 oylik profilaktik nazoratga qo'yiladi va shu vaqt ichida 2 marta allergik tekshiriladi. To'yimli ozuqa bilan boqish, sanitar-gigiyenik holati yaxshilanadi va muntazam dezinfeksiya o'tkaziladi.

Parranda fermalarida barcha kasal va nimjon tovuqlar go'shtga topshiriladi, qolganlari tuxum olgandan kiyin go'shtga topshiriladi, tuxumlar non kombinantlariga bo'lgan olishda ishlatishga yuboriladi.

Cho'chqalar semirtirib go'shtga, qolganlari ikki oylikdan boshlab har 30-45 kunda allergik tekshiriladi, ikki marta ketma-ket manfiy natija olinsa ferma sog'lom hisoblanadi.

Otlar ijobiy natija berganlari ajratiladi, 40-45 kunda qayta allergik tekshiriladi, reaksiya ijobiy bo'lsa go'shtga, qolganlari har 45-60 kunda allergik tekshiriladi. Bir marta to'liq manfiy natija olguncha tekshiriladi.

Adabiyotlar

- 1 Salimov X. S. , Qambarov A. A. Epizootologiya. Darslik 2016 Samarqand.
- 2 Veterinariya qonunchiligi T. 1998 y. 68 b.
- 3 Mamadullayev G .X., Raximov A. T. PPD tuberkulin diagnostikumining biologik parametrlari. J. Zoovetirinariya 2015 N: 9. 11-14-b
- 4 Басыбеков С.Д. О неспецифических туберкулиновых реакциях у к.р.с в хозяйствах южного Казахстана межд.науч.произ. конф КазНИВИ. 2006 г.с.68-70
- 5 Mamadullaev G.X., To'rayev A.S. Givechculosis N:4149 shtammning tuberkulostatik preparatga nisbatan monorezistentligi va sezuvchanligi. J.Zooveterinariya 2017. N:5. 11-17 b.
- 6 Кузин А.И. Оздоровление животноводческих хозяйств от туберкулёза. Рассельхозиздат. Москва 2002 г.